



TIJORAT BANKLARI FAOLIYATI SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA AKTIVLARNI SAMARALI BOSHQARISH YO'LLARI

Nomozov Umid

O'zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi

ORCID: 0009-0004-0388-7476

umidnomozov4@gmail.com

Annotatsiya. Maqola O'zbekiston tijorat banklarining faoliyati samaradorligini oshirish va moliyaviy barqarorligini mustahkamlashga qaratilgan bo'lib, bunda aktivlar rentabelligi (ROA) ko'rsatkichiga ta'sir etuvchi asosiy omillar tahlil qilingan. Markaziy bankning ma'lumotlari asosida kredit portfelining o'sishi va jismoniy shaxslar kreditlari ulushining oshishi tahlil qilingan. Maqolada faoliyat samaradorligini oshirishning asosiy drayverlari sifatida kredit risklarini qat'iy boshqarish, foiz marjasini optimallashtirish, raqamli texnologiyalar orqali operatsion xarajatlarni optimallashtirish va qimmatli qog'ozlar hisobiga aktivlarni strategik diversifikatsiya qilish zaruriyati asoslangan.

Kalit so'zlar: tijorat banklari, aktivlar rentabelligi (ROA), kredit portfeli, muammoli kreditlar (NPL), raqamli transformatsiya, aktivlar diversifikatsiyasi, foiz marjasi, operatsion xarajatlari.

ПУТИ ЭФФЕКТИВНОГО УПРАВЛЕНИЯ АКТИВАМИ ДЛЯ ПОВЫШЕНИЯ ЭФФЕКТИВНОСТИ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ КОММЕРЧЕСКИХ БАНКОВ

Номозов Умид

Банковско-финансовая академия Республики Узбекистан

Аннотация. Статья направлена на повышение эффективности деятельности и укрепление финансовой устойчивости коммерческих банков Узбекистана, при этом проанализированы основные факторы, влияющие на показатель рентабельности активов (ROA). На основе данных Центрального банка был проведен анализ роста кредитного портфеля и увеличения доли кредитов физических лиц. В статье обоснована необходимость строгого управления кредитными рисками, оптимизации процентной маржи, оптимизации операционных расходов с помощью цифровых технологий и стратегической диверсификации активов за счет ценных бумаг в качестве основных драйверов повышения эффективности деятельности.

Ключевые слова: коммерческие банки, рентабельность активов (ROA), кредитный портфель, проблемные кредиты (NPL), цифровая трансформация, диверсификация активов, процентная маржа, операционные расходы.

WAYS OF EFFECTIVE ASSETS MANAGEMENT TO IMPROVE THE EFFECTIVENESS OF COMMERCIAL BANKS' ACTIVITIES

Nomozov Umid

The Banking and Finance Academy of the Republic of Uzbekistan

Abstract. *The article is aimed at increasing the efficiency and strengthening the financial stability of commercial banks of Uzbekistan, analyzing the main factors influencing the return on assets (ROA) indicator. Based on data from the Central Bank, the growth of the loan portfolio and the increase in the share of loans from individuals were analyzed. The article substantiates the need for strict management of credit risks, optimization of interest margins, optimization of operating expenses through digital technologies, and strategic diversification of assets through securities as the main drivers of increasing operational efficiency.*

Keywords: *commercial banks, return on assets (ROA), loan portfolio, non-performing loans (NPL), digital transformation, asset diversification, interest margin, operating expenses.*

Kirish.

So'nggi paytlarda, O'zbekiston tijorat banklari alohida kredit berish jarayonini yaxshilash va bank xizmatlari sifatini oshirish muhim vazifalar qatorida turibdi. Shu munosabat bilan, bank ish yuritish usullarini isloh qilish va aholi hamda biznes subyektlari orasida bank tizimiga nisbatan ishonchni mustahkamlash zarurligi ta'kidlanmoqda. Bu vazifalar, tijorat banklariga bir qator yangi mas'uliyatlar yuklamoqda. O'zbekiston iqtisodiyotining faol komponenti bo'lgan xo'jalik yurituvchi subyektlarning barqaror rivojlanishi, tijorat banklarining tizimi bilan chambarchas bog'liq. Bunda, banklar tomonidan xo'jalik yurituvchi subyektlarga ko'rsatiladigan kompleks xizmatlar, xususan, innovatsion kreditlash xizmatlarining sifatini oshirish zarur. Ayni vaqtda, tijorat banklari tomonidan taqdim etilgan umumiy kreditlarning deyarli 55-60 foizi davlat dasturlari doirasida ajratilmoqda, imtiyozli kreditlarning ulushi katta bo'lib, banklarning depozit bazasi barqaror emas va mamlakatdagi inflyatsiya darajasi yuqori. Bu esa makzur mavzuning dolzarbligini belgilab beradi hamda bu yo'nalishda ilmiy takliflar va tavsiyalar ishlab chiqishga undaydi.

Adabiyotlar sharhi.

Zamonaviy moliyaviy tizimlarda raqamli transformatsiya banklarning samaradorligiga bevosita ta'sir ko'rsatmoqda. Fintech texnologiyalari, big data, sun'iy intellekt (AI), blokcheyn kabi innovatsiyalar bank aktivlarini boshqarish va monitoring qilishda yangi imkoniyatlar yaratmoqda. Masalan, bir qator ilmiy tadqiqotlarda fintechning total factor productivity'ga ijobiy ta'siri aniqlangan, bu banklarning tezkor va aniq qarorlar qabul qilish imkonini oshiradi (Analysis, 2023). Raqamli texnologiyalar yordamida banklar nafaqat xizmatlar sifatini yaxshilaydi, balki kredit risklarini samaraliroq baholash va monitoring qilish imkoniyatiga ega bo'lmoqda (Gomber et al., 2017).

Empirik tadqiqotlarda bank faoliyati samaradorligini o'lchash uchun ko'plab metodologiyalar qo'llaniladi. Indeks usullari, regressiya tahlillari, panel ma'lumotlar modellaridan tashqari, Data Envelopment Analysis (DEA) va Malmquist indeksi banklarning samaradorlik darajasini baholashda keng qo'llaniladi. Ayniqsa, DEA modeli banklarning texnik samaradorligini o'lchashda samarali vosita sifatida tanilgan, bu esa resurslardan foydalanishdagi samaradorlikni ko'rsatadi (Coelli et al., 2005). Malmquist indeksi esa vaqt o'tishi bilan samaradorlik o'zgarishini aniqlash imkonini beradi, bu esa bank faoliyatining dinamik tahlilida ahamiyatlidir (Färe et al., 1994).

Shuningdek, O'zbekistonda raqamli texnologiyalarni tijorat banklarida joriy etish samaradorligini baholashga qaratilgan tadqiqotlar ham mavjud. Masalan, "A Methodology for

Assessing the Effectiveness of the Introduction of Digital Technologies in Commercial Banks of Uzbekistan” nomli maqolada raqamli transformatsiya jarayonining samaradorlikka ta’sirini baholash uchun maxsus metodika ishlab chiqilgan bo’lib, u amaliyotda qo’llanishi mumkinligi ko’rsatilgan (Library, 2022).

Tadqiqot metodologiyasi.

Dissertatsiya ishida ilmiy abstraksiyalash, mantiqiy fikrlash, qiyosiy tahlil, monografik tadqiqot, ma’lumotlarni guruhlash, taqqoslash kabi usullaridan foydalanilgan.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

O’zbekistonda tijorat banklari faoliyati samaradorligini oshirishda bank aktivlarining rentabelligini oshirish bank tizimining moliyaviy barqarorligini, iqtisodiy samaradorligini va raqobatbardoshligini mustahkamlashning asosiy omillaridan biridir.

Aktivlar rentabelligi (ROA – Return on Assets) ko’rsatkichi bankning o’z aktivlarini qancha samarali boshqarishi va ulardan qancha daromad olishini aks ettiruvchi asosiy moliyaviy me’yordir. Ushbu bo’limda O’zbekiston Respublikasi Markaziy bankining 2023-yil sentabr va 2024-yil dekabr oylariga oid Statistika byulleteni ma’lumotlari, shuningdek, sohadagi avvalgi tadqiqotlar asosida ROA ko’rsatkichiga ta’sir etuvchi asosiy omillar tahliliy tahlilga tortiladi.

Quyidagi tahlil banklararo raqobat sharoitida barqaror o’sishni ta’minlashda aktivlarning samarali boshqarilishining ustuvor ahamiyatini ko’rsatadi.

1. Kredit portfelining sifati va hajmi. Kredit qo’yilmalar banklar aktivlarining asosiy tarkibiy qismi bo’lib, ularning rentabelligiga bevosita ta’sir ko’rsatadi. 2024-yil 1-oktyabr holatiga ko’ra, mamlakat bank tizimi bo’yicha kredit qo’yilmalarning hajmi 514,692.6 milliard so’mni tashkil etib, bu umumiy aktivlar hajmining 66,9% ni egallagan (O’zbekiston Respublikasi Markaziy banki, 2024-yil Statistika byulleteni). Bu ko’rsatkich 2023-yilning mos davriga nisbatan (436,528.0 milliard so’m) 18% ga o’sishni ifodalaydi, bu esa banklar tomonidan iqtisodiyotni kreditlash faoliyatining kengayayotganligidan dalolat beradi.

Shu bilan birga, kredit portfelining tarkibidagi ijobiy o’zgarish sifatida, jismoniy shaxslarning kredit portfelidagi ulushining 2024-yilda 32,1% ga yetib, 2023-yildagi 26,5% dan sezilarli darajada oshganligini qayd etish lozim. Bu tendensiya banklarning iste’molchi kreditlanishi va chakana bank xizmatlari bozoriga kirish darajasining oshayotganligini ko’rsatadi.

Biroq, kredit portfelining hajmiy o’sishiga qaramay, uning sifat ko’rsatkichlari tahlili tashvishli vaziyatni ochib beradi. 2024-yilda muammoli kreditlar ulushi 4,4% ga ko’tarilib, mutlaq qiymatda 20,9 trillion so’mga yetgan. Bu holat kredit risklarining oshayotganligini va portfel sifatining yomonlashayotganligini anglatadi.

Yuqoridagi ma’lumotlar asosida quyidagi xulosaga kelish mumkin: kredit portfelining hajmiy kengayishi dastlab daromadlarni oshirish imkoniyatini yaratadi. Ammo, ayni vaqtda, muammoli kreditlarning ko’payishi banklarni qo’shimcha xazina ajratishga majbur qiladi, bu esa foiz daromadlarini kamaytirib, operatsion xarajatlarni oshiradi va natijada aktivlar rentabelligi (ROA) pasayishiga olib keladi. Demak, banklarning uzoq muddatli barqarorligi faqat portfel hajmining o’sishi bilan emas, balki uning sifatini nazorat qilish va yaxshilash orqali ta’minlanadi.

2. Foiz daromadlari va foiz stavkalari. Foiz daromadlari banklarning asosiy daromad manbai hisoblanib, ularning hajmi foiz stavkalari darajasi va kreditlash hajmi kabi omillarga bevosita bog’liq. 2022-yilda bank tarmog’i bo’yicha foiz va foizsiz daromadlar 47,1% ga o’sish bilan sof foyda 2 trillion so’mdan oshib ketdi, bu 2021-yilga nisbatan 36,6% li o’sishni ifodalaydi. Bu dinamika kengayuvchi kredit faoliyatining daromad oqimiga ijobiy ta’sirini ko’rsatadi.

2024-yilgi ma'lumotlar kredit portfelining hajmiy jihatdan kengayishini tasdiqlaydi: olinmagan foizlar 514,692.6 milliard so'mga yetib, 2023-yildagi 436,528.0 milliard so'mdan 18% ga oshgan. Biroq, daromadlarning hajmiy o'sishiga qaramay, depozit bazasining kredit portfeliga nisbati (kredit-depozit nisbati) tahlili muhim farqlarni ochib beradi. 2023-yilda davlat banklarida har 100 so'mlik kreditga 39 so'm depozit jalb qilingan bo'lsa, 2024-yilda bu ko'rsatkich 36 so'mgacha tushgan. Xususiy banklarda esa bu nisbat 93 so'mdan 83 so'mgacha qisqargan.

1-jadval

O'zbekiston tijorat banklarida aktivlar rentabelligiga ta'sir qiluvchi asosiy omillar tahlili

Omil	2023-yil	2024-yil	O'zgarish (%)	Rentabellikka ta'siri
Kredit qo'yilmalar hajmi	436,528.0 mlrd so'm	514,692.6 mlrd so'm	+18%	Hajmning oshishi rentabellikni oshiradi, lekin muammoli kreditlar risk tug'diradi.
Jismoniy shaxslarning kredit ulushi	26.5%	32.1%	+5.6%	Jismoniy shaxslar kreditlari o'sishi rentabellikni oshirishi mumkin.
Muammoli kreditlar ulushi	-	4.4% (20.9 trln so'm)	-	Kredit sifati pasayishi rentabellikka salbiy ta'sir qiladi.
Foiz va foizsiz daromadlar o'sishi	-	47.1%	-	Daromadlarning o'sishi rentabellikni oshiradi.
Foizsiz daromadning umumiy daromaddagi ulushi	-	-	-	Foizsiz daromad ko'payishi risklarni kamaytiradi va barqaror daromad yaratadi.
100 so'mlik kreditga jalb qilingan depozit	Davlat banklari: 39 so'm	Davlat banklari: 36 so'm	-3 so'm	Foiz marjasini optimallashtirish rentabellikni oshirishi mumkin.
Xususiy banklar: 93 so'm	Xususiy banklar: 83 so'm	-10 so'm	Xususiy banklar foiz marjasini oshirishga harakat qilmoqda.	
Asosiy vositalar hajmi	17,234.8 mlrd so'm	24,955.8 mlrd so'm	+45%	Infratuzilmaga sarmoya ijobiy, lekin xarajatlarni oshiradi.
Qimmatli qog'ozlarga investitsiyalar	4.9%	7.1%	+2.2%	Diversifikatsiya banklarning barqarorligini oshiradi.
Umumiy rentabellik prognozi	-	-	-	Yuqoridagi omillar balansli boshqarilganda rentabellik oshishi mumkin.

Manba: O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining 2023-yil sentabr va 2024-yil dekabr Statistik byulletenlari asosida muallif tomonidan tuzildi.

Bu tendensiya, bir tomondan, xususiy banklarning resurs bazasidan samaraliroq foydalanishi va foiz marjasini boshqarishda davlat banklariga nisbatan ancha faolroq harakat qilishini ko'rsatadi. Biroq, ikkinchi tomondan, kredit portfelining tez sur'atlar bilan o'sishi bilan bog'liq bo'lgan olinmagan foizlarning ko'payishi (muammoli kreditlar) potentsial daromad

oqimiga jiddiy tahdid soladi, chunki ular banklarning pul mablag'larining aylanmasini sekinlashtirib, zaxira ajratish majburiyatini oshiradi.

Foiz daromadlarini oshirish nafaqat kreditlash hajmini kengaytirish, balki foiz stavkalarini optimal darajada belgilash, kredit risklarini samarali boshqarish va foiz to'lovlarini o'z vaqtida yig'ish mexanizmlarini yaratish orqali amalga oshiriladi. Foiz marjasini boshqarishning ushbu multifaktorial tabiati banklarning rentabelligini mustaqil ravishda ta'minlashda hal qiluvchi ahamiyatga ega.

3. Operatsion xarajatlarni boshqarish. Operatsion xarajatlar samaradorligi banklarning rentabelligini belgilovchi asosiy omillardan biridir. 2023–2024-yillarda bank tizimida asosiy vositalarga (bino, uskuna, transport vositalari) qo'yilgan investitsiyalar 17 234,8 milliard so'mdan 24 955,8 milliard so'mgacha o'sib, 45% ga ko'tarildi. Bu dinamika bank infratuzilmasini modernizatsiya qilish va filial tarmog'ini kengaytirishga qaratilgan faoliyatni ko'rsatsa-da, bir vaqtning o'zida asosiy vositalarni amortizatsiyalash, texnik xizmat ko'rsatish va boshqarish bilan bog'liq muqarrar xarajatlarning oshishiga ham olib keldi.

Biroq, zamonaviy bank sohasida operatsion xarajatlarni optimallashtirishning asosiy omili raqamli transformatsiyadir. "Kapitalbank" va "Hamkorbank" kabi xususiy banklar raqamlashtirish sohasida izchil siyosat olib borib, onlayn-banking, mobil ilovalar va avtomatlashtirilgan mijozlar xizmati tizimlarini joriy etish orqali operatsion samaradorlikni sezilarli darajada oshirdilar. Bu esa filial xarajatlarini qisqarish, inson resurslarining samaradorligini oshirish va xizmat ko'rsatish tezligini yaxshilash imkonini berdi. Operatsion xarajatlarni boshqarish ikki qarama-qarshi tendensiyaning muvozanlashtirishni talab etadi: bir tomondan, infratuzilma sarmoyasining moliyaviy og'irligini, ikkinchi tomondan, raqamlashtirish orqali xarajatlarni optimallashtirishdan keladigan potentsial foydani. Banklarning uzoq muddatli rentabelligi, asosan, operatsion jarayonlarni avtomatlashtirish texnologiyalaridan foydalanish va raqamli kanallarni kengaytirish orqali xarajatlar samaradorligini maksimal darajada oshirishga qaratilgan strategiyalarning samaradorligiga bog'liq bo'ladi.

4. Aktivlarning diversifikatsiyasi. Aktivlar portfelini diversifikatsiya qilish banklarning rentabelligini oshirish va risklarni kamaytirishda strategik ahamiyatga ega bo'lgan omil hisoblanadi. 2024-yilgi ma'lumotlar bank tizimida diversifikatsiya yo'nalishida ma'lum bir ijobiy tendensiyaning ko'rsatadigan qimmatli qog'ozlarga qo'yilgan investitsiyalar hajmi 49 613,9 milliard so'mga yetib, umumiy aktivlar ichidagi ulushi 7,1% ni tashkil etdi. Bu ko'rsatkich 2023-yildagi 4,9% dan sezilarli darajada oshib, aktivlar tarkibidagi diversifikatsiya jarayonining bosqichma-bosqich rivojlanishidan dalolat beradi.

Shu bilan birga, tahlil shuni ko'rsatadiki, banklar faoliyati hali ham kreditlash operatsiyalariga haddan tashqari qaram bo'lib qolmoqda, bu esa ularning risk profilini oshiradi. 2024-yilda kredit qo'yilmalarning umumiy aktivlar ichidagi ulushi 66,9% ni tashkil etgan bo'lsa, bu bank daromadlarining asosiy qismi hali ham ancha o'zgaruvchan bo'lgan makroiqtisodiy sharoitlarga bog'liq bo'lgan foiz daromadlariga tayanayotganligini ko'rsatadi.

Qimmatli qog'ozlar (masalan, davlat va korporativ obligatsiyalar), investitsion fondlar va boshqa moliyaviy instrumentlarga sarmoya kirituvchi diversifikatsion strategiya banklarga nafaqat tizimli risklarni kamaytirish, balki bozor sharoitlariga qarab moslashuvchan va barqarorroq daromad oqimlarini yaratish imkoniyatini beradi.

Aktivlar portfelini diversifikatsiya qilish – nafaqat risklarni boshqarishning muhim vositasi, balki barqaror rentabellikni ta'minlashning strategik yo'nalishidir. Qimmatli qog'ozlar bozoriga, xususiy kapital investitsiyalariga va boshqa alternativ aktivlarga investitsiyalarni bosqichma-bosqich oshirish orqali banklar o'z daromad bazasini kengaytirishi va iqtisodiyotning turli sektorlarida o'sish imkoniyatlaridan samarali foydalanishi mumkin.

Shuningdek, Barqaror moliyalashtirishning sof koeffitsienti (NSFR), Likvidlikni qoplash koeffitsienti (LCR), bank kapital monandlik koeffitsienti (CAR), tavakkalchilikka tortilgan

aktivlar (RWA) kabi ko'rsatkichlarning ham yaxshilanishi va doimiy nazorat qilinishi banklar faoliyati samaradorligiga hamda bu orqali aktivlarni samarali boshqarishga o'zining ijobiy ta'sirini ko'rsatadi.

Xulosa va takliflar.

Xulosa qilib aytganda, O'zbekiston bank tizimi samaradorligini oshirishda bank aktivlari rentabelligini (ROA) oshirish uchun quyidagi to'rtta asosiy omilning muvozanatli va izchil boshqarilishi zarur:

1. Kredit portfelining sifati va sifat boshqaruvi: Kredit portfelining hajmiy o'sishi daromad oshirish imkoniyatini yaratadi, ammo rentabellikni ta'minlash uchun muammoli kreditlar ulushini qat'iy nazorat qilish va kredit risklarini baholashning zamonaviy metodologiyalarini joriy etish muhimdir.

2. Foiz daromadlari va stavkalarining samarali boshqaruvi: Foiz daromadlarini oshirish nafaqat kreditlash hajmini kengaytirish, balki foiz stavkalarini optimal darajada belgilash, foiz marjasini boshqarish va kredit-taqsimotning barqarorligini ta'minlash orqali amalga oshirilishi lozim.

3. Operatsion xarajatlarni optimallashtirish: Infratuzilma xarajatlarining o'sishini raqamli texnologiyalarni joriy etish (onlayn-banking, avtomatlashtirish) hisobiga operatsion samaradorlikni oshirish bilan muvozanlashtirish rentabellikni sezilarli darajada yaxshilaydi.

4. Aktivlarning strategik diversifikatsiyasi: Kreditlashga haddan tashqari qaramlikni kamaytirish va barqaror daromad manbalarini yaratish uchun aktivlar portfelini qimmatli qog'ozlar va boshqa investitsion instrumentlar hisobiga diversifikatsiya qilish istiqbolli yo'nalish hisoblanadi.

Ushbu omillarning muvofiqlashtirilgan boshqaruvi nafaqat aktivlar rentabelligini oshirish, balki butun bank tizimining moliyaviy barqarorligi, raqobatbardoshligi va iqtisodiyotni moliyalashtirishdagi samaradorligini mustahkamlaydi.

Adabiyotlar/Jumepamypa/References:

ACM Digital Library (2022) *A Methodology for Assessing the Effectiveness of the Introduction of Digital Technologies in Commercial Banks of Uzbekistan* [online]. Available at: <https://dl.acm.org>

Basel Committee on Banking Supervision (2019) *Principles for the Sound Management of Credit Risk. Bank for International Settlements* [online]. Available at: <https://www.bis.org>

Gomber, P. et al. (2017) 'On the Fintech Revolution: Interpreting the Forces of Innovation and Transformation in Financial Services', *Journal of Management Information Systems*, 35(1), pp. 220–265.

Farmon (2020) *O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmoni PF-5992. Bank tizimini isloh qilishning 2020–2025-yillarga mo'ljallangan strategiyasi to'g'risida.*